

Qabul qilindi: 28.02.2025

Chop etildi: 31.03.2025

UDK: 091.274.112

BILIMLARNING HAQIQIYLIGI VA HAQIQAT

Panjiyev Suhrob, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası v.b. dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

THE VERACITY OF KNOWLEDGE AND TRUTH

Panjiyev Sukhrob, Termez University of Economics and Service, Acting Associate Professor of the Department of “Social Sciences” (PhD)

ПРАВДИВОСТЬ ЗНАНИЯ И ИСТИНА

Панжиев Сухроб, и.о. доцента кафедры “Социальных наук” Термезского университета экономики и сервиса, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada haqiqat tushunchasining falsafiy mazmuni, uning turlari va mezonlari to‘g‘risida hamda haqiqat turlarining dialektik aloqadorligi xususida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: falsafa, fan, haqiqat, bilim, mezon, amaliyot, mutloq haqiqat, nisbiy haqiqat, obyektiv haqiqat, subyektiv haqiqat.

Abstract: The article examines the philosophical content of the concept of truth, its types and criteria, as well as the dialectical relationship between the types of truth.

Key words: philosophy, science, truth, knowledge, criteria, practice, absolute truth, relative truth, objective truth, subjective truth.

Аннотация: В статье рассматривается философское содержание понятия истины, ее виды и критерии, а также диалектическое соотношение типов истины.

Ключевые слова: философия, наука, истина, знание, критерии, практика, абсолютная истина, относительная истина, объективная истина, субъективная истина.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Ma’lumki, faylasuflar azaldan haqiqat mohiyatini anglab yetishga harakat qilganlar. Chunki, faylasuflarni hamma vaqt kundalik hayotning moddiy xarakteridan uzoq turuvchi haqiqatlar qiziqtirgan edi. Hatto faylasuflar haqiqatni izlashda yanglishganlarida ham falsafaga ehtiyoj o‘lgani yo‘q. Hamon barcha odamlar aqlli mavjudot ekanliklariga da’vo qilar ekanlar, falsafa ular hayotining ko‘zgusiga aylanadi, uning yordamida hayotiy mo‘ljallar izlab topiladi. Shuning uchun falsafiy qarashda barcha masalalar shaxsiy omillarni hisobga olishni ko‘zda tutadi. “Haqiqat mohiyatini bilish asosida inson o‘zini qurshagan olamni anglab yetadi, uni har xil usullar yordamida o‘zlashtiradi” [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Haqiqat, uning turlari masalasi azal-azaldan olim va faylasuflar

tomonidan keng tadqiq etib kelingan. Xususan, Platon o‘zining “Bazm” nomli dialogida Suqrot nomidan tasvirlaydi: “Donishmandlikni (Haqiqatni) sevgan inson (faylasuf) Haqiqatga intiladi. Haqqa intilish - bu go‘zallikka intilishning oliy ko‘rinishidir”. Fransuz faylasufi va tabiatshunos olimi B.Paskalning “Haqiqat “qalb mantig‘i”ga va Xudoning mavjudligini subyektiv his etish orqali dalillanishiga asoslanadi”, degan fikri diqqatga sazovor. Shu ma’noda hayot haqiqatini to‘g‘ri anglash hamisha dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Zero, bu dunyoda inson sha’niga munosib faqat bitta intilish bor, u ham bo‘lsa dunyo va undagi o‘z o‘rnini, o‘zining bu dunyoga qanday, nima uchun (qay maqsadda) kelganini, ya’ni hayotida yuksak ma’no va maqsad bormi yoki yo‘qmi, agar bor bo‘lsa bu nimadan iboratligi haqidagi haqiqatni bilishdir. Haqiqat – favqulodda keng tushuncha. Bu so‘zdan foydalanish xususida V.S.Solovyov shunday yozgan



<https://orcid.org/0009-0004-2448-9047>

e-mail:

suhrob.panjiyev@mail.ru

edi: “Agar haqiqat nima?” degan doimiy savolga: haqiqat – bu ucburchak burchaklarining yig‘indisi ikki to‘g‘ri burchakka teng, yoki vodorodning kislorod bilan birikishidan suv hosil bo‘ladi, desa – bu yomon hazil bo‘lmaydi”[4].

MUHOKAMA(OBSUZHDENIE/DISCUSSION)

Shu paytgacha hech kim haqiqat masalasida yaxlit fikrni aytolganicha yo‘q. Shuning uchun ham bugungi kunda falsafaning gnoseologiya va epistemologiya sohalarida mazkur masalada chuqur izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu falsafiy bilim sohalarining haqiqatni tadqiq etish masalasidagi muammolari mazkur mavzuning qanchalik darajada dolzarbligini belgilaydi. Bu borada quyidagilarni e‘tiborga olish lozim:

Birinchidan, bugungi kunda hayotiy qadriyatlarni qayta baholash uchun qandaydir universal haqiqatlar tazyiqidan qutulish, qarashlarning o‘zaro muvofiqlashuvi va o‘zaro ta’sirlashuvi uchun asoslar topishga intilish va bunda bu qarashlarning sohibi insonning individualligini va o‘ziga xosligini saqlab qolish lozim. Ayni shuning uchun ham haqiqat mohiyatini aniqlash ularning mezonlarini belgilab olishda muhim o‘rinni egallaydi.

Ikkinchidan, odamda mulohaza qilish qobiliyatining rivojlanishi va ilmiy bilimlarning o‘sib borishi haqiqatni falsafiy izlash yo‘llari va vositalarini belgilab beradi. Buni biz haqiqat to‘g‘risidagi falsafiy qarashlar evolyutsiyasidan ham bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu qarashlarni yaxlit holda tadqiq etish bugungi kunda ham dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Uchinchidan, haqiqatni aniqlashga doir asosiy yondashuvlarni tahlil qilish bir qancha paradoksal xulosaga olib keladi, garchi ham hayotiy, ham ilmiy amaliyotda haqiqat tushunchasi foydalanilsa ham, aslida, uni oxirigacha aniqlangan, dyeb bo‘lmaydi. Insoniyat hali nafaqat tabiatga, jamiyatga va insonga tegishli faktlar va qonunlarni kashf qilishga to‘g‘ri keladi, bundan tashqari, haqiqat tushunchasining o‘ziga tegishli faktlar va qonunlarni ham ochishga, ya’ni yangi “haqiqat haqida haqiqatni” topishga to‘g‘ri keladi. Bu yozuv stoli ustida emas, odamlarning fan, san’at, axloq, butun hayot haqida konkret haqiqatlarni olishga imkon beradigan turli-tuman faoliyat shakllarida

qaror topadi. Buning uchun esa falsafadagi haqiqatning konseptual asoslaridan samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

To‘rtinchidan, insonning haqiqatni bilishga oid faoliyati, albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ham zamonaviy fan va falsafiy qarashlar rivojlanishi natijasida haqiqat masalasi borasida falsafiy-metodologik muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida mazkur masalalar doirasidagi qo‘lga kiritilgan yutuqlarni hisobga olgan holda tanqidiy va tahliliy fikr-mulohazalarni ishlab chiqish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Beshinchidan, yuksak bilim asosida kuch-qudratli bo‘lishga intilish insonni haqiqatni bilish xarakterini belgilab beradi. Bu esa haqiqatning gnoseologik xususiyatlarini to‘g‘ri va oqilona yoritib berish qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatib turibdi.

NATIJALAR (PEZULYATY / RESULTS).

Darhaqiqat, bugungi kunda inson jamiyati haqiqat o‘z erkinligi hissini yo‘qotish chegarasidan asta-sekin chiqib kelmoqda. Falsafa bu qadriyatlarning o‘tkinchi emasligini qayd qilib turadi, chunki bu qadriyatlarsiz hayot o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Shaxsning hayotiy rejalari ham, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini belgilash ham aqlning shunchalik quruq o‘yini emas. Inson o‘z hayotini ikki marta yashay olmaydi : bir marta asl maqsadlarsiz shunchaki “qoralama” tarzida va ikkinchi marta asl ideal va maqsadlarga muvofiq o‘tay olmaydi. Maqsadlar va ideallar hayotimizni takrorlanmas va jozibali qiladi. Ular hayotni saqlab turadi. Chunki odamlar o‘z hayotlarini ana shu maqsadlarga moslab, muvofiqlashtirib yashaydilar. Donishmandlik o‘zini ham, boshqalarni ham bostirishda emas, balki o‘z-o‘ziga va atrof-dunyo bilan muvofiqlikda yashashdir. Bunda falsafaga murojaat qilish ruhning rivojini ta’minlaydi, uni eski aqida va stereotiplardan tozalashga, hozirgi zamon maqsadlariga mos istiqbol yo‘llariga boshlashga xizmat qiladi.

“Haqiqat aslan yaxlit, bir butun. Lekin inson tafakkurida u turli qismlar (fragmentlar), xillar, qirralar va darajalarga ajralgan holda namoyon bo‘ladi”[3]. Boshqacha aytganda, inson o‘z fikrida voqelikni turli qismlarga ajratib o‘rganadi, uning har xil qirralarini ko‘radi, unga turli darajadagi teranlik

bilan yondashadi. Shu ma'noda shakllangan bilimlardan har birining inson va jamiyat hayotida o'z o'rnini va ahamiyati mavjudligi bilan birga, o'z cheklanganligi, adashuv va yolg'onligi ham bor. Shuning uchun qaysi bilim to'g'ri ekani borasidagi bu tortishuvlar, bizningcha, aslan yaxlit, mutlaq haqiqatning tafakkurda bir-biridan ajratilgan aspektlarining uzluksiz va uyg'un birlikka, yaxlitlashuvga keltirish, ular birgalikda murakkab, ulkan va yaxlit iyerarxiya tashkil etishini tushunish qiyin kechayotganining oqibatidir. Yer yuzida inson zotidan boshqa hech bir tirik jonning bunday muammo bilan ishi yo'q. Hech qaysi tirik mavjudot shu haqiqatni deb o'z jonidan ham voz kecha olmaydi. Shu ma'noda "insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'rin tutadi"[1].

Shu o'rinda yana bir masalani qayd etishimiz o'rinli bo'lardi, bugungi kunda gnoseologiya, ya'ni haqiqatni bilish metodlari va yo'llari haqidagi asl falsafiy ta'limot o'rnini epistemologiya – ilmiy bilim spetsifikasini, uning taraqqiyot qonunlarini va boshqa shu kabi muammolarni tahlil etishdan iborat tor analitik ilmiy nazariyalar egallamoqda. Shuning uchun ham endilikda gnoseologiyaning o'rnini egallagan bu "falsafa" – epistemologiya asl haqiqatning chuqur falsafiy tahlilini amalga oshirishga qodir emasligi ko'rinib turibdi. Zero, bizning falsafiy tafakkurimiz faqat epistemologiya masalalari bilan cheklanib qolganligi uchun ontologiyaga oid tushunchalar, xususan, ontologiyaga oid olov (nur)ning, gnoseologiyaga oid logos (nus)ning asl ma'nosini yoritib olmaydi va ularni bevosita mantiqan bog'lay olmaydi, sintezlay olmaydi. Ayni shu yerda, muammoni dialektik uslub yordamida yoritishga katta zarurat tug'iladi (agar u ham epistemolog faylasuflar nazaridan soqit qilinmagan bo'lsa, albatta). Bu sintezni amalga oshirishning qiyinligi, asosan shundaki, shu vaqtgacha biz dialektikani faqat tabiatdagi, jamiyatdagi ayrim hodisalarni va qisman mantiqiy bilish jarayonini tushunishga tatbiq etishda yuqori marralarga erishib keldig-u, lekin uni falsafiy tafakkurning o'ziga, xususan, ontologiya bilan

gnoseologiyani uzviy birlikda qabullashga tatbiq etmagan edik.

Klassik an'anada haqiqat bilimning shunday xossasi hisoblanadiki, bu bizning ongimiz mazmunining obyektiv holatga muvofiqligidir. Klassik an'anada "haqiqat bilimning inson ongi mazmunining obyektiv voqelikka muvofiq kelish xossasi"[2], deb tushuniladi. To'g'ri, bunda shunday bahs kelib chiqdi: mulohazalar aql g'oyalari mos kelishi kerakmi yoki sezgi ma'lumotlarigami? Chunki, asl ma'noda bilimning borliqning o'ziga mos kelishi talabi bajarilishi mumkin emas, axir borliq hamma vaqt bilish shakllarida beriladi-ku.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, haqiqatni aniqlashga doir yondashuvlardagi turli farq bu so'zning biror mustaqil mavjud mohiyatni aniqlash ma'nosida ishlatilganmi yoki inson bilimining xarakteristikasi sifatida ishlatilganiga bog'liq bo'ladi. Avvalo, bu haqiqatni tushunishdagi ikki asosiy an'ana: ontologik (bu ancha ilgari, Platon nomi bilan bog'liq) an'ana va gnoseologik (Aristotel nomi bilan bog'liq) an'anaga tegishli. Bu ikki sharhlash orasidagi asosiy farq shundaki, agar Platon va uning maslakdoshlari haqiqatni biror borliqqa tegishli narsa desalar, Aristotel uni bizning ongimizning bilish mazmunining xarakteristikasi, uning mantiqiy bog'langan nutqda (hukmda) ifodalanishi, deb biladi. Birinchi holda, haqiqat – bu o'z-o'zicha borliqdir, ikkinchi holda esa – bizning bu borliq haqidagi haqiqatdan bilganimizdir. Shunday qilib, Aristotelda "haqiqatning o'rnini" hakamlilik qiluvchi gap, bu gapda hukmdan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan voqelik haqidagi tasdiq yoki inkor aks etadi.

Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References):

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Panjiyev S. Ma'naviy tahdidlar sharoitida haqiqatning ahamiyati. O'zMU xabarlari. – Toshkent: Universitet. 2012-yil 4-son. – B. 127.
3. Panjiyev S. Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili. Fal.f.f.d.diss. – Samarqand: SamDChTI, 2023. – B. 15.
4. Соловьев В.С. Философские начала цельного знания//Соч.Т.2 – Москва.1988.–230 б.